

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA JADIDLAR OBRAZI

*Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti
3-bosqich talabasi Shokirova Gulhayo*

Annotatsiya : O‘zbek ma’rifatida o‘chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimiz nomini abadiylashtirishda adabiyot namoyondalarining harakati hamda bu borada Muhammad Yusuf yaratgan asarlardagi jadidlar obraziga munosabat . Yurtimizda ilmni , obodlikni targ‘ib qilgan buyuk ma’rifatparvarlar nomini avlodlar xotirasida muhrlashda badiiy adabiyotning o‘ziga xos o‘rni.

Kalit so‘zlar: obraz, jadid, qatag‘on, she’r, doston , ma’rifat, adolat .

Ma’rifat- avlodlar va ajdodlar orasida uzviy aloqani ta’minlaydigan ma’naviy ko‘prik, jamiyat taraqqiyoti uchun poydevordir. Yurtimiz , millatimiz azaldan unga intilgan . Zero, Movarounnahr o‘lkasi dunyoga ikki bor Renessansni taqdim etib , g‘arb-u sharqni ilm bilan ta’minlab o‘z "quyoshi" bilan bahramand etgan . XX asrda esa buyuk ajdodlarimizga munosiblarni yetishgan bu zamin ,ularning tirishqoqligi va bunyodkorligidan gurkiradi. Jadidlar- el-u xalqqa yangilikni va dunyoviy ta’limni olib kelganlar nomi hamisha barhayot. Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon , Ibrat , Hamza, Behbudiylar targ‘ib etgan ma’rifat o‘chog‘i elimizning taraqqiyoti uchun xizmat qildi. Ularning bu boradagi xizmatlarini esa, ona xalqimiz aslo unutmaydi hamda ularning nomini abadiylashtirish uchun bor imkonini bag‘ishlamoqda.

O‘qimay o‘l, unmay o‘l, o‘g‘lim,

O‘qib olim bo‘lmay o‘l ,o‘g‘lim,

Olti tilni bilmay o‘l, o‘g‘lim!..

Endi mening holim ne kechar?

Shoir Muhammad Yusuf tilidan jadidlarga nisbatan aytilgan bu nola ona qalbining nolasi edi. Olti tilni va undan ortiq tilni bilagan ma’rifatni targ‘ib qilgan jadidlarimiz hamisha Rus amaldorlarini qo‘rqitib turgan . Zero, ular davrida olamga "O‘zbek millatining ilm quyoshi" tarqala boshlagan edi ... Ammo 1937- yil allomalarimiz umrlariga nuqta qo‘ygan yil bo‘ldi. Shoir Muhammad Yusuf ham ularning hayoti bilan chuqur tanishib " Qora quyosh" dostonida ularning holatini , hayotini , ibratga to‘la hayotini namoyon etishga harakat qiladi:

O‘ttiz yettinchi yil kashfi mana sizga —

Erkaklarga alohida qamoqxona,

Ayollarga alohida qamoqxona,

Bolalarga alohida qamoqxona....

Achchiq alamlar to‘la misralar. Ularda xalqimiz boshidan o‘tkazgan qora kunlar tipik tarzda gavdalantirilgan va bu holatni oldindan bilgan jadidlarimiz XX asr

boshidanoq ularni ogohlikka da'vat etib , turli she'rlar, maqolalar, sahna asarlari bilan namoyishga chiqib xalqimizni uyg'oqlikka chorlaganlar:

Og'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda,
Bu millatning saodatin, baxtin o'qudim.
O'ylashingda, turishingda hamda o'zungda
Bu yurt uchun qutulishning borlig'in ko'rdim.

Fitrat ushbu misralari bilan barcha yoshlarni birlashishga , ilm uchun bor kuch va imkoniyatini bag'ishlashga undaydi . Chunki , ular Ozodlik-ilmida ,degan fikr bilan harakat qilishgan, hatto bu yo'lda jonlarini ham ayamaganlar. Fitrat, Avloniy ,Cho'lpon, Behbudiyalar o'z hisoblaridan yoshlarni Germaniyaga o'qishga yuborganlar."Ilm Chinda bo'lsa ham borib o'rganing" naqliga amal qilib ham dinni , ham dunyoviy ilmni yuksaltirishga harakat qilganlar. " Yer yuzi" , "Rusiya jug'rofiyasi" , "O'qish kitobi" kabi darsliklarni yaratgan jadidlarimiz yoshlarni dunyodagi tengdoshlari bilan tengma - teng harakat qilishini , ma'rifatli bo'lishini xohlagan , bu yo'lda bor imkoniyatlarini ishga solib , darsliklar, maktablar, teatrlar tashkillashtirganlar. Hattoki, ularning ilmni sinash uchun imtihonlar tashkillashtirib ,o'zaro fikr almashinish uchun bu imtihonlarda o'zaro qatnashishgan , jumladan Hamza ham Toshkenda , may oyida o'tkazilgan bilim sinoviga tashrif buyurib , yoshlar bilan , ularning o'zlashtiri bilan tanishgan .

Tushimga kiradi Qodiriy bobom,
Bemador,bemajol, behor, beorom,
Egniga eski bir to'n kiyib olgan -
Shineldir ,balki u kimdandir qolgan.

"O'tkan kunlar" ni o'qisak biz adabiy mulohazali o'tmish sahifalari bilan birga o'ziga xos axloq qoidalarini bilib olishimiz mumkin. Shoir Muhammad Yusuf esa ash'orida Qodiriyning achchiq qismatini yozib , uning avlodlarga qoldirgan so'zlarini ifodalab ,bizga ibrat maktabi bo'lgan ma'rifatni namoyon etadi. Bugun dunyo miqyosida tan olingan ushbu romanni bir asr oldin she'r deb atab tahqirlashganini adib yodga oladi. 1937-yilda qamalgan haqso'z Qodiriy obrazi shinel kiyib qamalganini tasvirlar ekan : "Tur deydi , muncha ko'p uxladimg, bolam"- deya bizni ogohlikka chorlaydi , hushyor tarzda ilm o'rganishga , yurt uchun fido bo'lishga chorlaydi. Muhammad tarixning sahifalarini qayta ochadi, haqiqatni baralla aytadi. Haq va adolat uchun kurashgan, o'z ijodini xalqqa yetkazish ilinjida bo'lgan jadidlarimiz nomi bugun abadiy.

Alam va achchiq iztirob ichida o'z ijodini , ma'rifatni jonidan , umridan aziz bilgan jadidlarimiz o'sha davrda yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratdilar , ammo, ularning qay tarzda o'lim topganini hatto "soqov kampir " ham bilmaydi:

O'lgan o'ldi-ketdi.
Hech kim qaytmaydi.
Nega?

Nima uchun?

Bu ham muammo.

Tarix soqov kampir

Dardin aytmaydi,

Aytolmas,

Unutib bo'lmas ammo.

Muhammad Yusuf ko'tarib chiqqan bu muammo naqadar haqli , shunday emasmi? Tarix naqadar buyuk bo'lmasin ,ayrim masalalarda "soqov kampir"ni qayta tiklashga hammamiz Muhammadday bel bog'lashimiz lozim. Shundagina jadidlarimiz qilgan ishlarini qisman oqlagan bo'lamiz. Darhaqiqat, unutilmas ajdodlarimiz hamisha barhayot. Ular haqida bugun she'rlar, asarlar bilan birga ilmiy asarlar, monografiyalar ham yaratilmoqda. Shunday ekan , ular aslo dilimizdan o'chmaydi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf "Xalq bo'l ,elim" Toshkent 2010-yil
2. O'zbek adabiyoti tarixi B. Qosimov va boshqalar 2008-yil
3. Tafakkur.uz
4. Fitrat" Tanlangan asarlar".
5. O'zbekiston tarixi 9-sinf darslik.